AVTOMATLAŞTIRILGAN QARORLAR USTIDAN ŞIKOYAT QILIŞ MEXANIZMI: ÖZBEKISTON, YEVROPA ITTIFOQI VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI

Quldoshov Humoyun Srojiddinovich,
«PraeLegal» advokatlik firmasi yuristi
humoyunkuldoshev@gmail.com
+998-90-500-82-80
ORCID: 0009-0007-9035-963X

Annotatsiya. *Maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari iştirokida qabul qilingan yuridik ahamiyatga ega qarorlar ustidan şikoyat qilişning huquqiy mexanizmi tadqiq etilgan. Tadqiqot maqsadi – 2026-yil 21-yanvardagi ÖRQ-1115-son Qonun bilan joriy etilgan normalarni Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya tajribasi bilan qiyoslab, milliy qonunçilikdagi böşliqlarni aniqlaş va ularni bartaraf etiş böyiça takliflar işlab çiqişdan iborat. Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil hamda sud amaliyotini tahlil qiliş usullaridan foydalanildi. Natijalar şuni körsatdiki, Özbekiston qonunçiligi faqat SI xulosalariga tayanib qaror qabul qilişni taqiqlasada, şaxsning SI qöllanganidan xabardor böliş, qaror sabablarini tuşuntirib berişni talab qiliş va qarorni inson tomonidan qayta körib çiqişni söraş huquqlari hamda ularni amalga oşiriş tartibi belgilanmagan. Maqolada "Axborotlaştiriş töğrisida"gi, "Şaxsga doir ma'lumotlar töğrisida"gi va "Ma'muriy tartib-taomillar töğrisida"gi qonunlarga kiritiladigan aniq özgartişlar taklif qilingan. Natijalardan qonun ijodkorligi va huquqni qöllaş amaliyotida foydalaniş mumkin.*

Kalit sözlar. *sun'iy intellekt, avtomatlaştirilgan qaror, tuşuntiriş huquqi, inson nazorati, şikoyat qiliş huquqi, GDPR, AI Act, şaxsga doir ma'lumotlar.*

Аннотация. *В статье исследуется правовой механизм обжалования юридически значимых решений, принятых с участием технологий искусственного интеллекта (ИИ). Цель исследования – на основе сравнения норм, введённых Законом Республики Узбекистан от 21 января 2026 года № ЗРУ-1115, с опытом Европейского союза и Республики Корея выявить пробелы национального законодательства и разработать предложения по их устранению. Использованы формально-юридический, сравнительно-правовой и системный методы, а также анализ судебной практики. Установлено, что законодательство Узбекистана запрещает принимать решения, опираясь исключительно на выводы ИИ, однако не закрепляет права лица знать о применении ИИ, требовать объяснения решения и его пересмотра человеком, а также порядок реализации*

этих прав. Предложены конкретные изменения в законы «Об информатизации», «О персональных данных» и «Об административных процедурах». Результаты могут быть использованы в правотворческой и правоприменительной деятельности.

Ключевые слова. *искусственный интеллект, автоматизированное решение, право на объяснение, человеческий контроль, право на обжалование, GDPR, AI Act, персональные данные.*

Abstract. *The article examines the legal mechanism for challenging legally significant decisions made with the involvement of artificial intelligence (AI). The study aims to identify gaps in national legislation and to develop proposals to address them by comparing the rules introduced by Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-1115 of 21 January 2026 with the experience of the European Union and the Republic of Korea. Formal legal, comparative legal and systemic methods, as well as case-law analysis, were applied. The study finds that although Uzbek law prohibits decisions based solely on AI outputs, it does not establish a person's rights to be informed of AI use, to obtain an explanation of the decision and to request human review, nor the procedure for exercising these rights. Specific amendments to the laws "On Informatization", "On Personal Data" and "On Administrative Procedures" are proposed. The findings may be used in law-making and law-enforcement practice.*

Keywords. *artificial intelligence, automated decision-making, right to explanation, human oversight, right to contest, GDPR, AI Act, personal data.*

Kiriş

Davlat boşqaruvi, bank-moliya, mehnat munosabatlari va ijtimoiy ta'minot sohalarida sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalaniş tez sur'atlar bilan kengaymoqda. Kredit beriş, işga qabul qiliş, ijtimoiy nafaqa tayinlaş yoki soliq tekşiruvi uçun obyekt tanlaş kabi qarorlar tobora köproq algoritmlar tavsiyasiga tayanmoqda. Bunday qarorlar şaxsning huquq va majburiyatlariga bevosita ta'sir qiladi, biroq ular qanday şakllangani köpinça şaxs uçun ham, qarorni rasmiylaştirgan mansabdor şaxs uçun ham noaniq qoladi. Natijada Konstitutsiyada kafolatlangan öz huquqlarini sud orqali himoya qiliş va davlat organlarining qarorlari ustidan şikoyat qiliş huquqi [1] amalda zaiflaşadi: sababi noma'lum qarorga asosli e'tiroz bildiriş qiyin.

Özbekistonda bu masalaga qonun darajasida birinçi marta 2026-yil 21-yanvardagi ÖRQ-1115-son Qonun bilan javob berildi [2]. Qonun "Axborotlaştiriş töğrisida"gi Qonunga sun'iy intellekt ta'rifini va yangi 7¹-moddani kiritdi. Unga köra insonning huquq va erkinliklariga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilişda faqat sun'iy intellekt asosida işlaydigan axborot tizimlarining xulosalariga tayaniş mumkin emas. Şuningdek, sun'iy intellekt yordamida şaxsga doir ma'lu-

motlarga qonunga xilof ravişda işlov berganlik uçun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Uşbu tizimni Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgaça rivojlantiriş strategiyasi (Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori) va 2026-yil 17-iyundan kuçga kirgan sun'iy intellekt asosidagi yeçimlar etikasi qoidalari töldiradi. Biroq qonunçilik taqiqni belgilagan bölsa-da, uşbu taqiq buzilganda şaxs qanday harakat qilişi, qaysi organga murojaat etişi va qanday ma'lumotni talab qilişga haqli ekani oçiq qolmoqda.

Avtomatlaştirilgan qarorlar va "tuşuntiriş huquqi" masalasi xorijiy adabiyotda keng muhokama qilingan. S. Vaxter, B. Mittelştadt va L. Floridi GDPR matnidan individual qarorni tuşuntiriş huquqi bevosita kelib çiqmasligini ta'kidlagan [3]. L. Edvards va M. Vil esa bunday huquqning amaliy samaradorligiga şubha bildirib, ta'sirni oldindan baholaş va sertifikatlaş kabi tizimli kafolatlarga ham e'tibor qaratiş lozimligini körsatgan [4]. Janubiy Koreyaning yangi normalari D.H. Kim va D.H. Park tomonidan GDPR bilan qiyosiy tahlil qilingan [5]. Milliy adabiyotda şaxsiy hayot daxlsizligi huquqining nazariy asoslari örganilgan [6], ammo sun'iy intellekt iştirokidagi qarorlar ustidan şikoyat qiliş mexanizmi alohida tadqiqot obyekti bölmagan.

Tadqiqot maqsadi – Özbekiston, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreyada avtomatlaştirilgan qarorlar ustidan şikoyat qiliş mexanizmlarini qiyosiy tahlil qiliş asosida milliy qonunçilikni takomillaştiriş böyiça takliflar işlab çiqiş. Uşbu maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar qöyildi: milliy normalarni tahlil qilib, ulardagi böşliqlarni aniqlaş; Yevropa Ittifoqi va Koreya modellarining asosiy elementlarini oçib beriş; qiyosiy tahlil natijalariga köra aniq qonunçilik takliflarini işlab çiqiş.

Asosiy qism

Tadqiqot usullari

Tadqiqotda formal-yuridik usul yordamida ÖRQ-1115-son Qonun, "Axborotlaştiriş töğrisida"gi, "Şaxsga doir ma'lumotlar töğrisida"gi [7], "Ma'muriy tartibtaomillar töğrisida"gi [8] va "Jismoniy va yuridik şaxslarning murojaatlari töğrisida"gi qonunlar normalari tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy (funksional) usul asosida uç yurisdiksiya normalari bir xil savollar böyiça soliştirildi: şaxs sun'iy intellekt qöllanganidan xabardor qilinadimi; qaror sabablarini biliş huquqiga egami; qarorni inson tomonidan qayta körib çiqişni talab qila oladimi; mustaqil nazorat va şikoyat organi mavjudmi. Yevropa Ittifoqining tanlanişi GDPR va AI Act xalqaro standart sifatida köplab davlatlar qonunçiligiga ta'sir körsatayotgani bilan, Janubiy Koreyaning tanlanişi esa u Osiyoda sun'iy intellekt töğrisida yaxlit qonun qabul qilgan va avtomatlaştirilgan qarorlar böyiça alohida norma kiritgan birinçi davlatlardan biri ekani bilan izohlanadi. Tizimli tahlil usuli normalarning özaro boğliqligini

baholaşga, sud amaliyotini tahlil qiliş esa normalarning amalda qanday talqin qilinişini aniqlaşga xizmat qildi.

Natijalar

Özbekistonning amaldagi huquqiy asoslari. Konstitutsiyaning 31-moddasi har kimga öz şaxsiga doir ma'lumotlarni himoya qiliş, notöğri ma'lumotlarning tuzatilişini va qonunga xilof yöl bilan töplangan ma'lumotlarning yöq qilinişini talab qiliş huquqini kafolatlaydi [1]. ÖRQ-1115-son Qonun bilan kiritilgan "Axborotlaştiriş töğrisida"gi Qonunning 7^1-moddasi ikki qoidani belgilaydi: birinçidan, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt asosida işlaydigan axborot tizimlari insonning hayoti, soğliği, erkinligi, şa'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazmasligi şart; ikkinçidan, huquq va erkinliklarga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlar faqat sun'iy intellekt xulosalariga asoslanişi mumkin emas. Xuddi şu Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik töğrisidagi kodeksning 46^2-moddasi ikkinçi qism bilan töldirilib, sun'iy intellekt yordamida şaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof işlov berganlik va ularni tarqatganlik uçun bazaviy hisoblaş miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigaça jarima belgilandi [2].

Şu bilan birga, tahlil milliy qonunçilikda quyidagi böşliqlar mavjudligini körsatdi.

Birinçidan, şaxsning özига nisbatan qaror qabul qilişda sun'iy intellekt qöllanganidan xabardor böliş huquqi belgilanmagan. Bunday ma'lumot bölmasa, 7^1-moddadagi taqiq buzilganini isbotlaş deyarli imkonsiz.

Ikkinçidan, qaror sabablarini, sun'iy intellekt tizimining qarordagi rolini va hisobga olingan asosiy omillarni tuşuntirib berişni talab qiliş huquqi mavjud emas.

Uçinçidan, "faqat sun'iy intellekt xulosalariga tayaniş" tuşunçasi oçib berilmagan. Mansabdor şaxs sun'iy intellekt tavsiyasini tanqidiy baholamasdan rasmiylaştirgan holat taqiq ostiga tuşadimi yoki yöqmi, qonundan aniq kelib çiqmaydi.

Törtinçidan, 7^1-modda buzilişining huquqiy oqibati – qarorning haqiqiy emasligi yoki bekor qilinişi – körsatilmagan, ma'muriy javobgarlik esa faqat şaxsga doir ma'lumotlarga xilof işlov beriş bilan boğlangan.

Beşinçidan, xususiy sektor (banklar, suğurta taşkilotlari, iş beruvçilar) tomonidan qabul qilinadigan avtomatlaştirilgan qarorlar ustidan şikoyat qiliş uçun maxsus tartib va vakolatli organ belgilanmagan.

Davlat organlarining qarorlari uçun "Ma'muriy tartib-taomillar töğrisida"gi Qonun ma'muriy hujjatni asoslaş va manfaatdor şaxsni eşitiş kabi umumiy kafolatlarni nazarda tutadi, ma'muriy hujjat ustidan esa yuqori turuvçi organga yoki sudga şikoyat qiliş mumkin [8]. Lekin bu kafolatlar sun'iy intellekt iştirokini hisobga olmaydi: ma'muriy hujjatda qaror sun'iy intellekt tavsiyasi asosida tayyorlangani

körsatilişi talab qilinmaydi. Natijada asoslaş majburiyati rasmiyatçilikka aylanib qoliş xavfi mavjud.

Yevropa Ittifoqi modeli. GDPRning 22-moddasi 1-qismi şaxsga faqat avtomatlaştirilgan işlovga, jumladan profilingga asoslangan va unga nisbatan huquqiy oqibat keltirib çiqaradigan yoki şunga öxşaş jiddiy ta'sir körsatadigan qarorga böysunmaslik huquqini beradi [9]. Istisnolar (şartnoma, qonun, aniq rozilik) qöllanganda ham nazoratçi kamida uçta kafolatni ta'minlaşi şart: inson aralaşuvini talab qiliş, öz nuqtai nazarini bildiriş va qarorga e'tiroz bildiriş (22-moddaning 3-qismi). 13–15-moddalar avtomatlaştirilgan qaror mavjudligi, qöllanilgan mantiq haqida mazmunli ma'lumot va kutilayotgan oqibatlar töğrisida axborot oliş huquqini mustahkamlaydi. 29-modda işçi guruhining WP251rev.01 yöriqnomasiga köra, inson iştiroki rasmiy bölmasligi, ya'ni qarorni özgartiriş vakolati va malakasiga ega şaxs tomonidan mazmunan amalga oşirilişi lozim.

Yevropa Ittifoqi Sudi amaliyoti uşbu normalarni sezilarli darajada kengaytirdi. SCHUFA işida Sud kredit byurosi avtomatik hisoblagan skoring bahosi, agar bank kredit beriş töğrisidagi qarorida unga hal qiluvçi darajada tayansa, 22-modda ma'nosidagi "qaror" deb e'tirof etilişini belgiladi [10]. 2025-yil 27-fevraldagi Dun & Bradstreet Austria işida (C-203/22) esa Sud nazoratçi şaxsga uning ma'lumotlariga nisbatan amalda qöllanilgan tartib va tamoyillarni tuşunarli şaklda tuşuntirişi şartligini, tijorat siri bilan boğliq ziddiyatni esa nazorat organi yoki sud manfaatlarni muvozanatlaş orqali hal qilişi kerakligini körsatdi.

AI Act uşbu tizimni sun'iy intellektga xos qoidalar bilan töldiradi [11]. 86-moddaga köra, III ilovada sanab ötilgan yuqori xavfli tizim natijasi asosida qabul qilingan va şaxsga huquqiy yoki jiddiy ta'sir körsatgan qaror böyiça şaxs joriy etuvçidan (deployer) sun'iy intellekt tizimining qaror qabul qilişdagi roli va qarorning asosiy elementlari haqida aniq va mazmunli tuşuntiriş oliş huquqiga ega. 14-modda yuqori xavfli tizimlar ustidan samarali inson nazoratini, 26-modda joriy etuvçilarning majburiyatlarini, 27-modda davlat organlari va ommaviy xizmat körsatuvçi taşkilotlar uçun asosiy huquqlarga ta'sirni oldindan baholaşni, 85-modda esa bozor nazorati organiga şikoyat beriş huquqini nazarda tutadi. Ta'kidlaş joizki, 2026-yil iyulda kuçga kirgan 2026/1744-son Reglament III ilovadagi yuqori xavfli tizimlarga oid majburiyatlarning qöllanilişini 2027-yil 2-dekabrgaça keçiktirdi. Biroq GDPR kafolatlari bugungi kunda ham töliq amal qilmoqda.

Janubiy Koreya modeli. Koreyaning Şaxsiy axborotni himoya qiliş töğrisidagi qonuniga (PIPA) 2023-yilda kiritilgan va 2024-yil 15-martdan kuçga kirgan 37-2-modda [12] töliq avtomatlaştirilgan tizim, jumladan sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan va şaxs huquq yoki majburiyatlariga jiddiy ta'sir körsatadigan qarorni rad etiş huquqini hamda avtomatlaştirilgan qaror böyiça tuşuntiriş talab qiliş huquqini belgiladi. Şaxs uşbu huquqlardan foydalanganda axborot nazoratçisi, jiddiy sabab

bölmasa, qarorni qöllamasligi yoki uni inson iştirokida qayta işlaş, tuşuntiriş beriş kabi zarur çoralarni körişi şart. Ijro dekretining 44-3-moddasi tuşuntiriş mazmunini aniqlaştiradi: qaror natijasi, foydalanilgan asosiy şaxsiy ma'lumotlar turlari, asosiy mezonlar va qaror qabul qiliş tartibi [5]. Biroq mazkur norma Davlat boşqaruvi töğrisidagi asosiy qonunning (General Act on Public Administration) 20-moddasi asosida qabul qilinadigan avtomatik ma'muriy hujjatlarga nisbatan qöllanilmaydi, ya'ni davlat sektori alohida rejimda qoladi [5].

2026-yil 22-yanvardan kuçga kirgan Sun'iy intellekt rivojlanişi va işonç asoslarini yaratiş töğrisidagi asosiy qonun (AI Basic Act) "yuqori ta'sirli sun'iy intellekt" tuşunçasini kiritdi [13]. Qonunning 31-moddasi foydalanuvçini yuqori ta'sirli yoki generativ sun'iy intellekt qöllanilayotgani haqida oldindan xabardor qilişni talab qiladi. 34-moddaga köra operator sun'iy intellekt natijasi, unga asos bölgan asosiy mezon va tamoyillar hamda öquv ma'lumotlari haqida umumiy ma'lumot böyiça mazmunli tuşuntiriş berişi, şuningdek inson nazorati çoralarini körişi lozim. 35-modda esa asosiy huquqlarga ta'sirni baholaşni nazarda tutadi.

Qiyosiy natijalar. Uç yurisdiksiyadagi asosiy himoya vositalari 1-jadvalda umumlaştirildi.

1-jadval

Avtomatlaştirilgan qarorlar ustidan himoyalaniş vositalarining qiyosiy tavsifi

Mezon	**Özbekiston**	**Yevropa Ittifoqi**	**Janubiy Koreya**
Asosiy normalar	"Axborotlaştiriş töğrisida"gi Qonun 7^1-moddasi; MJtK 46^2-moddasi	GDPR 13–15, 22-moddalari; AI Act 14, 26, 27, 85, 86-moddalari	PIPA 37-2-moddasi; AI Basic Act 31, 34, 35-moddalari
Tartibga soliş modeli	Taqiq (faqat SI xulosasiga tayaniş mumkin emas)	Taqiq, istisnolar va majburiy kafolatlar	Rad etiş huquqi va operator majburiyatlari
SI qöllanganidan xabardor böliş	Belgilanmagan	Mavjud (GDPR 13–14-m.; AI Act 26-m.)	Mavjud (PIPA 37-2-m.; AI Basic Act 31-m.)
Tuşuntiriş oliş huquqi	Belgilanmagan	Mavjud (GDPR 15-m.; AI Act 86-m.)	Mavjud, mazmuni ijro dekretida belgilangan
Inson tomonidan qayta körib çiqiş	Bilvosita (taqiq orqali), tartibi yöq	Mavjud (GDPR 22-m. 3-q.)	Mavjud (PIPA 37-2-m. 3-q.)
Şikoyat organi	Umumiy tartib: yuqori turuvçi organ yoki sud	Ma'lumotlarni himoya qiliş organlari, bozor nazorati organlari, sud	Şaxsiy axborotni himoya qiliş komissiyasi (PIPC), sud

Mezon	Özbekiston	Yevropa Ittifoqi	Janubiy Koreya
Davlat sektori	Qamrab olinadi, maxsus tartib yöq	Qamrab olinadi; ta'sirni oldindan baholaş (AI Act 27-m.)	PIPA 37-2-m. qöllanil-maydi, alohida ma'muriy rejim

Muhokama

Qiyosiy tahlil şuni körsatadiki, Özbekiston qonun çiqaruvçisi Koreyadagi "rad etiş huquqi" modelini emas, balki GDPRning 29-modda işçi guruhi tomonidan talqin qilingan "umumiy taqiq" modeliga yaqin yondaşuvni tanlagan. Himoya darajasi nuqtai nazaridan bu ijobiy hol: D.H. Kim va D.H. Park ta'kidlaganidek, rad etiş huquqiga asoslangan model öz huquqidan samarali foydalana olmaydigan şaxslarni himoyasiz qoldiradi [5]. Biroq taqiq faqat uni amalga oşiriş vositalari mavjud böl-gandagina samarali böladi. Yevropa Ittifoqi va Koreyada taqiq yoki rad etiş huquqi xabardor böliş, tuşuntiriş oliş va qayta körib çiqişni talab qiliş huquqlari bilan bir-galikda yagona "zanjir"ni taşkil etadi. Özbekistonda esa bu zanjirning faqat oxirgi böğini – taqiqning özi mavjud.

Ikkinçi muammo – "avtomatlaştirişga moyillik" (automation bias) holati, ya'ni mansabdor şaxs sun'iy intellekt tavsiyasini rasman körib çiqib, amalda özgarişsiz qabul qilişi. Bunday holatda qaror şaklan inson tomonidan qabul qilingan böladi va 7^1-moddadagi taqiq çetlab ötiladi. Köp bosqiçli tizimlarda, masalan, nomzodlarni dastlabki saralaşda sun'iy intellekt işlatilib, yakuniy qarorni inson qabul qiladigan hollarda bu muammo yanada keskinlaşadi. Şu sababli "faqat sun'iy intellekt xulosasiga tayaniş" mezonini inson iştirokining mazmunli bölişi bilan boğlaş zarur: qarorni qabul qiluvçi şaxs uni özgartiriş vakolatiga, zarur malakaga va tavsiyadan farqli qaror qabul qiliş uçun real imkoniyatga ega bölişi kerak.

Uçinçidan, xorijiy amaliyot himoya mexanizmlari yöqligining oqibatlarini ya-qqol körsatadi. Niderlandiyada ijtimoiy ta'minotdagi firibgarlikni aniqlaş uçun qöllanilgan SyRI tizimi Gaaga tuman sudining 2020-yil 5-fevraldagi qarori bilan şaf-foflik yetişmasligi sababli Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qiliş töğrisidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasiga zid deb topildi. Bu misol davlat sektorida sun'iy intellektni qöllaşda şaffoflik konstitutsiyaviy darajadagi talab eka-nini tasdiqlaydi.

Törtinçidan, tuşuntiriş huquqi tijorat siri bilan töqnaş keladi. Dun & Bradstreet Austria işidagi yondaşuv – maxfiy ma'lumotni şaxsning özига emas, nazorat organi yoki sudga taqdim etiş va ular tomonidan manfaatlarni muvozanatlaş – Özbekiston uçun ham maqbul yeçim bölişi mumkin. Şuningdek, tuşuntiriş öz-özidan maqsad emas: u şaxsga qarorga e'tiroz bildiriş uçun yetarli ma'lumot berişi lozim [4].

Yuqoridagilardan kelib çiqib, milliy qonunçilikni takomillaştiriş böyiça quyidagi takliflar ilgari suriladi.

"Axborotlaştiriş töğrisida"gi Qonunning 7[1]-moddasini quyidagi mazmundagi qismlar bilan töldiriş:

"Huquq va erkinliklariga aloqador yuridik ahamiyatga ega qaror qabul qilişda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan şaxs qaror qabul qilişda sun'iy intellektdan foydalanilganligi töğrisida xabardor qiliniş, sun'iy intellekt tizimining qaror qabul qilişdagi roli hamda hisobga olingan asosiy omillar va mezonlar haqida tuşunarli şaklda tuşuntiriş oliş, şuningdek qarorni tegişli vakolat va malakaga ega bölgan şaxs tomonidan qayta körib çiqilişini talab qiliş huquqiga ega.

Uşbu moddaning ikkinçi qismi talablariga zid ravişda qabul qilingan qaror manfaatdor şaxsning arizasiga köra bekor qilinişi lozim."

"Ma'muriy tartib-taomillar töğrisida"gi Qonunga "avtomatlaştirilgan tizim yordamida tayyorlangan ma'muriy hujjat" tuşunçasini kiritiş, ma'muriy hujjatda sun'iy intellekt qöllanganini körsatiş majburiyatini belgilaş va ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiya) talab etiladigan hollarda qarorlarni töliq avtomatlaştirişni taqiqlaş. Bu borada Koreya qonunçiligiga ham asos bölgan Germaniya Ma'muriy tartib-taomillar töğrisidagi qonunining 35a-paragrafi tajribasidan foydalaniş mumkin [5].

"Şaxsga doir ma'lumotlar töğrisida"gi Qonunga GDPRning 22-moddasi va PIPAning 37-2-moddasi namunasida avtomatlaştirilgan qarorlar böyiça subyekt huquqlarini belgilovçi alohida modda kiritiş [7, 9, 12].

Davlat organlari va ommaviy xizmat körsatuvçi taşkilotlarda qöllanilayotgan yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlarining oçiq reyestrini yuritiş hamda ularni joriy etişdan oldin inson huquqlariga ta'sirini baholaşni majburiy qiliş.

Sud nizolarida sun'iy intellekt qonuniy qöllanganini isbotlaş yukini qarorni qabul qilgan organ yoki taşkilot zimmasiga yuklaş. Bu masalada Özbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan tuşuntiriş berilişi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinçidan, ÖRQ-1115-son Qonun sun'iy intellekt iştirokidagi qarorlar böyiça muhim tamoyilni – faqat sun'iy intellekt xulosasiga asoslangan yuridik ahamiyatga ega qarorni taqiqlaşni mustahkamladi va bu jihatdan Koreya modeliga nisbatan yuqoriroq himoya darajasini nazarda tutadi. Ikkinçidan, uşbu taqiq protsessual vositalar bilan ta'minlanmagan: şaxs sun'iy intellekt qöllanganini bilmaydi, qaror sabablarini söray olmaydi va qayta körib çiqişni talab qilişning aniq tartibiga ega emas. Uçinçidan, Yevropa Ittifoqi va Koreya tajribasi samarali himoya "xabardor qiliş – tuşuntiriş – inson tomonidan qayta körib çiqiş – mustaqil organga şikoyat" zanjiri orqali ta'minlanişini körsatadi.

Taklif etilgan özgartişlar sun'iy intellekt texnologiyalari rivojini çeklamasdan fuqarolar huquqlarini kafolatlaşga, investorlar uçun huquqiy aniqlikni oşirişga va milliy qonunçilikni xalqaro standartlarga yaqinlaştirişga xizmat qiladi. Kelgusi

tadqiqotlar uçun kredit skoringi, işga qabul qiliş va soliq nazorati kabi sohalarda sun'iy intellekt qöllaş amaliyotini empirik örganiş hamda şakllanayotgan sud amaliyotini tahlil qiliş dolzarb yönaliş hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi : 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan. – URL: https: // lex.uz/docs/6445145 (murojaat sanasi: 02.11.2026).

2. Sun'iy intellektni qöllaş orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida : Özbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi ÖRQ-1115-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.01.2026-y., 03/26/1115/0063-son. – URL: https: // lex.uz/docs/8008401 (murojaat sanasi: 02.11.2026).

3. Wachter S., Mittelstadt B., Floridi L. Why a Right to Explanation of Automated Decision-Making Does Not Exist in the General Data Protection Regulation // International Data Privacy Law. — 2017. — Vol. 7, No. 2. — P. 76–99. – DOI: 10.1093/idpl/ipx005.

4. Edwards L., Veale M. Slave to the Algorithm? Why a 'Right to an Explanation' Is Probably Not the Remedy You Are Looking For // Duke Law & Technology Review. — 2017. — Vol. 16, No. 1. — P. 18–84.

5. Kim D.H., Park D.H. Automated decision-making in South Korea: a critical review of the revised Personal Information Protection Act // Humanities and Social Sciences Communications. — 2024. — Vol. 11. – Art. 974. – DOI: 10.1057/s41599-024-03470-y.

6. Madiev F. Şaxsiy hayot daxlsizligi huquqi rivojlanişining nazariy asoslari: tuşunçasi va huquqiy tabiati // Jamiyat va innovatsiyalar. — 2022. — Vol. 3, No. 7/S. — B. 184–195. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss7/S-pp184-195.

7. Şaxsga doir ma'lumotlar töğrisida : Özbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi ÖRQ-547-son Qonuni (2026-yil 26-martdagi ÖRQ-1125-son Qonun tahririda) // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi.

8. Ma'muriy tartib-taomillar töğrisida : Özbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi ÖRQ-457-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi.

9. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation) // Official Journal of the European Union. — 2016. – L 119. — P. 1–88.

10. Judgment of the Court of Justice of 7 December 2023, OQ v Land Hessen (SCHUFA Holding AG), Case C-634/21. – ECLI:EU:C:2023:957.

11. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // Official Journal of the European Union. — 2024. – L series, 12.07.2024.

12. Personal Information Protection Act of the Republic of Korea (as amended on 14 March 2023; Article 37-2 in force since 15 March 2024). – URL: https: // www.law.go.kr (murojaat sanasi: 02.11.2026).

13. Framework Act on the Development of Artificial Intelligence and the Establishment of a Foundation for Trust of the Republic of Korea (AI Basic Act; in force since 22 January 2026). – URL: https: // www.law.go.kr (murojaat sanasi: 02.11.2026).